KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 53 (583) 2025-YIL, 12-NOYABR

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI!

“Adolat mezoni” gazetasi tahririyati bilan Andijon pedagogika texnikumi hamkorligida “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati!” mavzusida tadbir o‘tkazildi.



Unda Andijon shahar prokurorining o‘rinbosari Xotamjon Rahmonov, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining Andijon viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari Farhodbek Otaxonov, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi raisi Maxpura Artiqovalar tomonidan ishtirokchilarga mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borilayotgan davlat siyosati, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi qonun va qonunosti hujjatlarining mazmun va mohiyati xususida tushunchalar berildi.

Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda bu borada ularning bilim va malakalarini oshirish maqsadida tashkil etilgan tadbirda texnikum rahbarlari, o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirok etdi.

Bugungi kunda, korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Buni so‘nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ma’muriy islohotlar misolida ham ko‘rish mumkin.



Prezidentimizning 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonida ham korrupsiyaga qarshi kurashishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadbir davomida korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilik asoslari, respublikada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ishlar, mavjud kamchiliklar hamda tashkilotlardagi ushbu yo‘nalishdagi muammolar haqida to‘xtalib o‘tildi. Korrupsiyaning oldini olishda mas’ul xodimlarning vazifalari bo‘yicha ma’lumotlar berildi.

– Seminar davomida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar, ishlab chiqilayotgan hujjatlar, bu borada amaliy hamkorlik masalalari xususida tushunchaga ega bo‘ldik, – dedi Andijon pedagogika texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi Mahbubaxon Isroilova. Faoliyatimizda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilib, ularni o‘zimizning amaliyotimizda qo‘llashni o‘rgandik.

Elmiraxon RAHMONOVA,
Andijon pedagogika texnikumi matbuot kotibi.

SUD TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY VA AMALIY ASOSLARI YARATILDI

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida raqamli texnologiyalarni, xususan, sun’iy intellektni (AI) sud amaliyotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab qo‘yildi.

2025-yil 21-avgustda qabul qilingan Prezidentning “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni sud tizimidagi raqamlashtirish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad — sud tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali odil sudlovning samaradorligini oshirish, sud ishlarini ko‘rib chiqishda shaffoflik va tezkorlikni ta’minlashdir.

(Davomi 3-betda).

TADBIRKORNING QONUNIY MANFAATLARI – SUD HIMOYASIDA

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlarning huquqlarini kafolatli himoya qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Zero, davlatning iqtisodiy qudrati, aholi farovonligi tadbirkorlik sohasi rivojiga bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda ushbu subyektlarning erkin faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, huquqlarini ishonchli himoya qilishda odil sudlov faoliyati ham muhim o‘rin tutadi.

Chunki, tadbirkorlar o‘zlariga biznes hamkorlar topishda, ular bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishda har xil kutilmagan muammolarga duch kelishlari mumkin. Jumladan, tadbirkorlar bilan shartnoma tuzishda hamkor taraf hisoblangan boshqa taraflar shartnoma bo‘yicha o‘zlariga yuklatilgan mahsulotlarni yetkazib berish majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida tadbirkorlarning boshqa shartnomalari bo‘yicha o‘ziga olgan majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilishiga olib keladi.

(Davomi 3-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

ASR MUAMMOSIGA AYLANGAN ILLAT

Bugungi kundagi eng og‘riqli muammolardan biri bu - korrupsiyadir.

Korrupsiya mamlakatimiz taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli ham bu illatni «taraqqiyot kushandasi» deb atash bejiz emas.

«Korrupsiya so‘zi lotincha «corruptio» - buzilish, sotilish, halollikdan chekinish degan ma’nolarni anglatadi. U turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: pora olish va berish, tanish-bilishchilik, hujjatlarni o‘zlashtirish va soxtalashtirish va hokazo. Korrupsiya tufayli, halol mehnat qilayotgan insonlar o‘z mehnatining natijasini ko‘rolmaydilar. Bu illat insonlarning eng og‘riqli tomoni. Korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat idoralarining yoki maxsus tashkilotlarning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Yurtimizdagi har bir fuqaro halollik, vijdon va qonuniylik tamoyillariga amal qilsa, korrupsiyaga o‘rin qolmaydi.



Davlatimizda bu borada keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun, Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi faoliyati, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash - bularning barchasi korrupsiyani ildizi bilan yo‘q qilishga qaratilgan muhim choralardir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, korrupsiya taraqqiyot, adolat va ishonchni yemiradi. Shuning uchun ham har birimiz, ayniqsa biz yoshlar bu illatga befarq bo‘lmasligimiz, halollik va poklik kabi xislatlarga amal qilib, jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Halol insonlar ko‘p bo‘lgan jamiyatda taraqqiyot barqaror bo‘ladi. Shunday ekan, keling, korrupsiyaga qarshi kurashni o‘zimizdan boshlaylik.

Kumushbibi XAYITBOYEVA.

KELAJAKNI O‘G‘IRLAYDIGAN XAVF

Bugungi kubda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiyaga so‘ngi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Korrupsiya bu - jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatga eng katta tahdid soluvchi illatlardan biri. U nafaqat davlat boshqaruvi tizimiga, balki fuqarolarning ongiga, ishonchiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korrupsiyaning jamiyatga ta’siri

Korrupsiya keng tarqalgan davlatlarda: qonun ustuvorligi zaiflashadi, iqtisodiy o‘sish sekinlashadi, aholining davlatga bo‘lgan ishonchi pasayadi, ta’lim, tibbiyot, biznes kabi sohalarda tenglik buziladi.

Korrupsiyaning asosiy salbiy jihati shundaki, u jamiyatning har bur qatlamiga kirib boradi va odamlarda «halollik foyda bermaydi» degan xato tushunchani shakllantiradi.

Tanish-bilish ham korrupsiya

O‘zbekiston so‘ngi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan:

«Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi» tashkil etildi;

Davlat xizmatlarida shaffoflik kengaytirildi;

Elektron hukumat tizimlari joriy qilindi;

Ochiq ma’lumotlar portallari ishga tushirildi.

Bu chora-tadbirlar korrupsion holatlarning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korrupsiya kelajakni o‘g‘irlaydigan xavf

Korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo‘li - yosh avlod ongida halollik va adolat tamoyillarini mustahkamlashdir. Ta’lim muassasalarida:

Haqiqiy savodxonlikni oshirish va halollik darslari,

Yoshlar o‘rtasida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish kabi ishlar shunday immunitetni shakllantirishga yordam beradi.

Korrupsiya ijtimoiy adolatni yemiruvchi yashirin kuch

Raqamlashtirish - inson omilini kamaytiradi, natijada poraxo‘rlik ehtimoli pasayadi.

Shaffoflik - davlat xarajatlarini, tanlov va tender jarayonlarini ochiq e’lon qilish.

Jamoatchilik nazorati - fuqarolarning faol ishtiroki, OAV va blogerlarning erkin kuzatuvi.

Xulosa.

Korrupsiyaga qarshi kurash - bu bir kunlik yoki bir tashkilotning ishi emas. Bu butun jamiyatning umumiy maqsadi, umumiy mas’uliyatidir. Har bir fuqaro halollik va mas’uliyatni o‘zidan boshlab amalga oshirsa, jamiyatda adolat tamoyillari mustahkamlanadi, davlat esa yanada rivojlanadi.

Hilola SOTVOLDIYEVA.

ADOLAT — PUL BILAN O‘LCHANMAYDI

Korrupsiya — bu nafaqat jinoyat, bu jamiyat tanasidagi sekin-asta yoyilayotgan kasallikdir. U qayerda paydo bo‘lsa, o‘sha joyda ishonch yo‘qoladi. Ishonch yo‘qolganda esa taraqqiyot to‘xtaydi.

Ba’zi odamlar “Bir marta olay, hech kim bilmaydi”, deb o‘ylaydi. Aslida, bilmaydigan hech kim yo‘q — xalq biladi, vijdon biladi. Eng yomoni, o‘sha “kichik pora” ertangi kunni qora qiladi. Chunki bugun 100 ming so‘m olayotgan kishi ertaga millionlab imkoniyatlardan ayriladi.

Korrupsiya ko‘pincha oddiy illatdan boshlanadi: tanish-bilishchilik, “bir og‘iz iltimos”, “meniki-ku”, degan so‘zlardan. Ammo natijada bir emas, yuzlab insonlarning haq-huquqi poymol bo‘ladi. Bu — jamiyatni ich-ichidan yemiruvchi jarayon.

Endi o‘ylab ko‘raylik: kim korrupsiyani to‘xtata oladi? Faqat davlatmi? Yo‘q. Korrupsiya har bir insonning halolligidan boshlanadi. Agar har kim o‘z ishini pok niyat va vijdon bilan bajarsa, korrupsiyaga joy qolmaydi.



Halol ishlayotgan shifokor, adolatli o‘qituvchi, vijdonli inspektor — bular korrupsiyaga qarshi eng katta quroldir. Chunki qonun jazolaydi, lekin vijdon tuzatadi.

Bugun korrupsiyaga qarshi kurashish — bu faqat shior emas, bu yashash madaniyatimiz bo‘lishi kerak. Chunki adolat — pul bilan o‘lchanmaydi, halollik esa insonning eng katta boyligidir.

Ro‘zixon O‘KTAMJONOVA.

KORRUPSIYAGA QARSHI QANDAY QONUN VA JAZOLAR BORLIGIDAN XABARINGIZ BORMI?

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi bir qancha qonun va huquqiy normalar mavjud. 2017-yilda ”Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risi”da Qonun qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks korrupsiyaga aloqador jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarni belgilaydi. 2023-yilda esa "korrupsion jinoyatlar" tushunchasi aniqlashtirilib, jinoyatlar uchun jazolarni kuchaytirish bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritilgan.

Ma’muriy javobgarlik: masalan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi talablarini buzgan mansabdorlar uchun 3-5 bazaviy hisoblash birliklari miqdorida jarima belgilangan. Agar takroran bir yil ichida qayta sodir bo‘lsa, 5-10 baza birliklarida jarima bor.

Jinoyat bo‘yicha: Korrupsiya jihatidan jinoyatga tushadigan holatlar, masalan, pora berish, mansabni suiiste’mol qilish va xuddi shunday jinoyatlar uchun jazolarni yanada kuchaytirish nazarda tutilgan.



Hozirgi hisoblashlarga ko‘ra, davlat xizmatchilariga nisbatan pora bilan bog‘liq jinoyatlar kamayib borayotgan, biroq boshqa korrupsiya turlari - byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish, mansabni suiiste’mol qilish ko‘paymoqda.

O‘zbekistonning Jinoyat Kodeksi "Korrupsiyaga oid jinoyatlar" bo‘limi to‘ldirilmoqda, 205-modda "Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish", 210-modda "Pora olganlik", 211-modda "Pora berganlik", 212-modda "Pora olish-berishda vositachilik qilish" kabi bir qator moddalar mavjud.

Xadichaxon JALOLIDDINOVA,
Andijon Davlat Chet tillari Instituti
2-bosqich talabasi.

“SUDYALAR FAOLIYATI” SAHIFASI



TADBIRKORNING QONUNIY MANFAATLARI – SUD HIMOYASIDA

(Davomi. Boshi 1-betda).

Bu esa o‘z navbatida, tadbirkorlarning foyda va daromad olish imkoniyatlarini tushirib yuborishi mumkin.

Bunday vaziyatda, tadbirkorlar shartnoma shartlarini bajarilishini ta’minlashni, boy berilgan foyda va zararlarni undirishni so‘rab sudga murojaat qilishlari mumkin.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi deb belgilangan.

Shu o‘rinda, Andijon tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan 2025-yil yanvar-oktyabr oylari davomida jami 5 997 ta da’vo arizalari kelib tushgan. Shundan, 1467 tasi tadbirkorlardan kelib tushgan bo‘lib, ushbu da’vo arizalar sud tomonidan ko‘rilib, tegishli qarorlar qabul qilingan. Mos ravishda, 2024-yilning shu davri davomida jami 2 806 ta da’vo arizalar kelib tushgan. Shundan, 713 tasi tadbirkorlardan kelib tushgan bo‘lib, ushbu da’vo arizalar sud tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilingan.

Ushbu statistik ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, tadbirkorlardan kelib tushgan da’vo arizalarining miqdori ikki baravarga oshgan.

Bu esa tadbirkorlarning o‘zlarini buzilgan huquqlarini sud orqali tiklash yoki himoya qilish samaraliroq ekanligini hamda tadbirkorlarning sudga bo‘lgan ishonchlarini ortganligidan dalolat beradi.

Biroq, tadbirkorlarni buzilgan huquqlarini sud orqali tiklash va ularni himoya qilish tadbirkorlar uchun oxirgi chora bo‘lishi lozim.

Chunki, fuqarolik jamiyatida har bir fuqaroviy munosabat subyektlari shartnomaviy munosabatlarga kirishganda shartnoma bo‘yicha o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarishlari lozim bo‘ladi. Shunda, tadbirkorlar o‘rtasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldi olingan bo‘ladi. Sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va tadbirkorlardan kelib tushgan barcha da’vo arizalar ikkinchi tarafning shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan kelib chiqqan. Ushbu nizolarni sudda ko‘rish esa ma’lum bir muddat va mablag‘larni (sud xarajatlari va pochta xarajatlari yakunda aybdordan undirilsa ham) talab etadi.

Shuningdek, tadbirkorning qonuniy manfaatlari sud orqali himoya qilinib kelinayotgan bo‘lsa-da, Xalqaro ko‘rsatkichlarda shartnoma majburiyatlari taraflar tomonidan sud orqali emas, balki sudgacha bajarilishi ustun qo‘yiladi. Shu sababli, shartnoma shartlarini bajarilishini sudgacha hal qilish institutlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Jumladan, nizolarni hakamlik sudlarida ko‘rib chiqish, mediatsiya kelishuvlarni tuzish va boshqa sudgacha yarashtiruv institutlarini joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlarni huquqlarini sud orqali himoya qilish murojaatchi tadbirkorlar uchun qulay va samarali yo‘l hisoblanadi. Biroq, jamiyatimizda tadbirkorlarni huquqlarini sud orqali himoya qilish asosiy yo‘l bo‘lib qolishi, taraflar sudma-sud yurishi maqsadga muvofiq emas. Biz nizolarni hal qilishda sudgacha yarashtiruv institutlaridan foydalanishimiz, ular faoliyatini rivojlantirishimiz va taraflarning shartnoma tuzishda shartnoma tuzish savodxonligini oshirishimiz lozim. Shunda, biz tadbirkorlarni buzilgan huquqlarini tiklash emas, ularni huquqlarini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali tadbirkorlarning chinakam huquq va manfaatlarini himoya qilgan bo‘lamiz.

X.ABDURAIMOV,
Andijon tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi.

SUD TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY VA AMALIY ASOSLARI YARATILDI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yildi:

- “Raqamli sud” konsepsiyasini amalga oshirish. Sud jarayonlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish, qog‘oz aylanmasini kamaytirish, sud ishlarini onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish;

- Sun’iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlarni shakllantirishni yo‘lga qo‘yish;

- Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay elektron xizmatlar, xususan taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyati yaratish;

- Sud tizimi xodimlarining raqamli savodxonligini doimiy oshirib borish;

- Sud binolarini zamonaviy texnika va infratuzilma bilan jihozlash orqali “Raqamli sud” tizimining texnik poydevorini yaratish.

Farmonga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab «my.sud.uz» interaktiv xizmatlar portalida fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish moduli joriy etiladi, bunda sun’iy intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchi yaratilib, fuqarolarning huquqiy murojaatlarga javob berish hamda sud ma’lumotlarini avtomatik yetkazish tizimi joriy qilinadi. Bu xizmat orqali fuqarolar sud jarayoniga oid ma’lumotlarni qiyinchiliksiz olishi mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, sud hujjatlari loyihalari avtomatik shakllantiriladi, sun’iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalari real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlanadi. Bu jarayonlar sudyalar va sud xodimlari yuklamasini kamaytirishi natijasida asosiy e’tiborni masalaning asl mohiyatiga qaratishga imkon beradi va sud hujjatlarini shakllantirishda inson omilini minimallashtiradi.

Farmonning muhim jihatlaridan biri — iqtisodiy sudlar tizimini optimallashtirishga oid chora-tadbirlardir. Xususan, 2026-yildan boshlab iqtisodiy sudlarni maqbullashtirish orqali tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari tugatilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo iqtisodiy sudlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan.

«Raqamli sud» konsepsiyasi asosida bosqichma-bosqich sud majlisi zallarini tashkil etish hamda aholi va sudyalar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish ham farmonda belgilangan asosiy vazifalardan biridir. Bu murojaatchi va boshqa taraflar uchun vaqt va resurs tejalishiga, sud binosiga kelib o‘tirmasdan sud majlislarida muammosiz ishtirok etishiga qo‘shimcha qulaylik va shart-sharoit yaratadi.

Farmon “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarga uyg‘un holda ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, u xalqaro tajribalarga tayangan holda, sud tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Masalan, Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarda sudlarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samarali natija bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning PF–140-sonli Farmoni — O‘zbekiston sud tizimini yangi bosqichga olib chiquvchi islohot dasturi bo‘ldi. Farmonda belgilangan vazifalarni bajarish orqali sud ishlari elektron shaklga to‘liq o‘tiladi, sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish sud faoliyatini tezlashtiradi va sudlar xolisligini oshiradi, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchi yanada oshiriladi, iqtisodiy sudlar faoliyatida samaradorlik va bir xil amaliyot ta’minlanadi.

Shuningdek, mazkur farmonning amaliy ahamiyati shundaki, u nafaqat sud tizimini raqamlashtirishni nazarda tutadi, balki odil sudlov, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta’minlash yo‘lidagi institutsional kafolatlarni mustahkamlaydi.

Ilhom XAYITOV,
Andijon tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi.

Jinoyat va jazo

INSON UMRI OLIY NE’MAT

UMR — INSON UCHUN BERILGAN ENG ULUG‘ NE’MAT. UNGA NUQTA QO‘YISHGA HECH BIR INSON HAQLI EMAS.

AYRIM SHAXSLARNING ICHKILIK SABAB, OILADA TURLI KO‘NGILSIZLIKLAR, HATTO QOTILLIKKACHA BORISHI JUDA ACHINARLIDIR. AFSUSKI, ANA SHUNDAY HOLAT TUFAYLI UCH NAFAR YOSH BOLALAR YETIM QOLDI.

Andijon tumanida tug‘ilgan Botir Umarov (ism-shariflar o‘zgartirilgan) o‘rtoqlari bilan 2024-yil 3-oktyabr kechasidan boshlab erta tonggacha “shaytonning suvi”dan rosa ichishadi. Bazm nihoyasiga yetadi. Botir xayrlashgach, mast holda uyi tomon yo‘l oladi.

Botirning turmush o‘rtog‘i Nigora Umarova (ism-shariflar o‘zgartirilgan) darvozadan kirib kelayotgan erini ko‘rishi bilan qo‘lidan tutib, arzini boshlaydi:

— Qachongacha shunday ichib yurasiz? Uyimizda na halovat, na baraka qoldi. Men siz bilan boshqa yashamoqchi emasman, ajrashaman! — deydi.

Nigora Botirni so‘riga joylashtirib, uyga kirib ketadi.

Botir:

- Rostdan uydan ketasanmi? Qo‘y, bunday qilma”, — deydi.

Biroq Nigora qarorida qat’iy darvoza tomon yo‘l oladi. Shu payt Botir so‘rida turgan pichoqni olib, uning chap biqiniga sanchadi.

Nigora: - Bo‘ldi, - deb kechirim so‘ray boshlaydi. Botir esa xotinining gaplariga quloq solmaydi va ayoli tanasining boshqa joylariga ham pichoq uradi.

Og‘riqdan dodlagan Nigoraning ovozidan uyqudagi bolalari uyg‘onib chiqishadi. Onasining barmoqlari orasidan yerga tomayotgan qonni ko‘rib, dod deb yig‘lay boshlashadi.

Qichqiriqni eshitgan qo‘shnisi Rustam Nazarov (ism-shariflar o‘zgartirilgan) yordamga chiqib, tez tibbiy yordam chaqirib, Nigorani shifoxonaga olib ketadi. Yigirma kun davomida malakali jarroh shifokorlar tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlarga qaramasdan, Nigora bu yorug‘ olamni tark etadi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Oltinko‘l tumani sudi tomonidan Botir Umarovga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismining “j” bandi bilan 18-yil ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlandi va jabrlanuvchining qonuniy vakili foydasiga 40 million so‘m moddiy va 10 million so‘m ma’naviy zarar undirish haqida hukm qilindi. Botir Umarov va marhuma Nigora Umarovalarning 3 nafar farzandlarini qarindoshlari hamda vasiylik va homiylik muassasalariga topshirish vazifasi tuman hokimligi zimmasiga yuklatildi.

Qotillikning ildizi ko‘pincha yuqoridagidek ichkilik, zararli moddalar ta’sirida yoki g‘azab bilan o‘ylamay ish tutishdan kelib chiqadi. Ammo har bir vaziyatda ham, aql va sabr bilan ish tutish lozim. Bu kabi holatlarda ota-onasidan ayrilib, yetim qolgan bolalarning taqdiri har doim ko‘ndalang turadi.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek:

“Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, — degan chuqur ma’noli so‘zlari, farzandlarimiz otasining mast holidagi nigohlari va onasining ko‘z yoshlari orasida emas, tinchlik va totuvlik muhitida tarbiya olib kamol topishiga ota-onalar mas’ulligimizni eslatadi.

Insonni o‘ldirish katta gunohligi, qolaversa qonunchiligimizda bunday qilmish egalariga qattiq jazo borligini unutmaylik!

F. ABDURAIMOV,
Andijon viloyati sudi raisining o'rinbosari, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati raisi.

NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLANING ONASIGA PENSIYA TAYINLASHDA QANDAY IMTIYOZLAR BOR?

Ushbu savolga Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Andijon shahar bo‘limi boshlig‘i Iqboljon Karimov javob beradi:

- Nogironligi bo‘lgan bolalarning onalariga quyidagi imtiyozlar berilgan:

1. Nogironligi bo‘lgan farzandini 8 yoshgacha tarbiya qilgan onaga pensiya tayinlashda talab qilinadigan 20 yillik ish stajiga farzandiga qaragan davri qo‘shib hisoblanadi.

Eslatma: Yuqorida nazarda tutilgan davr ish staji kamida 7 yil mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘shib hisoblanadi.

2. Mazkur talablarga javob bergan holda fuqaroda kamida 20 yil ish staji mavjud bo‘lsa, imtiyozli 50 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqishi mumkin.

Nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga, shuningdek Chernobil AESdagi avariya tufayli mayib bo‘lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga tayinlanadi (https://lex.uz/docs/112314#127096), (https://lex.uz/docs/112314#127096).

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari (TIEK (https://lex.uz/docs/5852486)) tomonidan aniqlanadi.

Nogironlik pensiyasi TIEK tomonidan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan, sug‘urta qilingan xodimlarga:

mehnatda mayib bo‘lganligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli — mehnat faoliyatining muddatidan qat’i nazar;

boshqa sabablar tufayli — muddati sug‘urta qilingan xodimning nogironlik ro‘y bergan vaqtdagi yoshiga bog‘liq tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi.

- Pensiya tayinlash haqida qaysi joyga murojaat qilinadi?

- Pensiya tayinlash masalalari bo‘yicha yashash joyidagi Pensiya jamg‘armasining bo‘limlariga:

ishlayotganlar tashkilot ma’muriyati orqali;

dehqon xo‘jaliklari a’zolari, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar ariza bilan murojaat qiladilar;

ishlamaydigan fuqarolar arizani mustaqil o‘zlari yashash joyidagi Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga beradilar.

- Pensiya tayinlashda qanday hujjatlar taqdim etiladi?

- Nogironlik pensiyasini tayinlashni so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;

ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

Zarurat bo‘lgan hollarda boshqa hujjatlar ham talab etilishi mumkin. (https://lex.uz/docs/6236060#6238464)

- Nogironlik pensiyasini tayinlash muddatlari haqida to‘xtalib o‘tsangiz?

- Fuqaro pensiya olish huquqi paydo bo‘lgan kundan boshlab 60 kungacha murojaat qilinsa – TMEK tomonidan nogironlik belgilangan kundan boshlab;

60 kunlik murojaat qilish muddati o‘tkazib yuborilgan xollarda murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari TMEK tomonidan belgilangan butun nogironlik davri uchun tayinlanadi.

60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayollarga nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi.

Ana shu nogironlarni qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi

- Nogironlik pensiyasini olish huquqini beradigan ish staji haqida ham aytib o‘tsangiz?

- Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi:

23 yoshga qadar ish staji 2-yil,
23 yoshdan 26 yoshga qadar ish staji 3-yil,
26 yoshdan 31 yoshga qadar ish staji 5-yil,
31 yoshdan 36 yoshga qadar ish staji 7-yil,
36 yoshdan 41 yoshga qadar ish staji 9-yil,
41 yoshdan 46 yoshga qadar ish staji 11-yil,
46 yoshdan 51 yoshga qadar ish staji 14-yil,
51 yoshdan 56 yoshga qadar ish staji 17-yil,
56 yosh va undan oshganda ish staji 20-yil.

20 yoshga to‘lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to‘xtatilganidan keyin nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o‘tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.



Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Pensiyani hisoblash tartibi bilan tanishish uchun quyidagi havolaga (http://advice.uz/uz/document/221)ўтинг. (http://advice.uz/uz/document/221)

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga murojaat qilish uchun quyidagi "1140" ishonch telefonlariga qo‘ng‘iroq qiling.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankiga murojaat qilish uchun quyidagi havolaga (https://xb.uz/)ўтинг (https://xb.uz/) yoki "1106" ishonch telefonlariga qo‘ng‘iroq qiling.

- Shu o‘rinda hayotiy misolga to‘xtalib o‘taylik. V. ismli shaxs mehnatda mayiblanganlik yoki umumiy kasallik sababli, nogironlikka chiqqan fuqaroga nogironlik pensiyasini tayinlash uning ish stajiga bog‘liq yoki bog‘liq emasligi haqida so‘radi. Bunga sizning javobingiz?

- Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar, tayinlanadi.

-Suhbatingiz uchun rahmat.

Suhbatdosh: M.ORTIQOVA,
“Adolat mezoni” gazetasi maxsus muxbiri.

UNYO XARITASI ICHKI DU

Harbiy xizmat - bu nafaqat jasorat va intizom maydoni, balki inson ruhiyatining haqiqiy sinovi hamdir. Shu sababli harbiy psixologlar o‘z ishida psixodiagnostikani oddiy tekshiruv sifatida emas, balki harbiy xizmatchining ichki dunyosini o‘rganish san’ati sifatida ko‘radilar.

Psixodiagnostika - bu xizmatchining ichki xaritasini chizish vositasi. Testlar, so‘rovnomalar, kuzatuv va suhbatlar yordamida uning hissiy barqarorligi, stressga chidamliligi, motivatsiyasi va jamoaviy moslashuvi aniqlanadi. “Har bir xizmatchining ruhiy profili — bu o‘ziga xos kod. Biz uni to‘g‘ri o‘qishimiz kerak, shunda uning kuchli tomonlarini mustahkamlash va zaif nuqtalarini qo‘llab-quvvatlash mumkin,” — deydi 7553 harbiy qism psixologi.

Psixodiagnostika nafaqat muammolarni aniqlash, balki ularga oldindan yechim topish imkonini beradi. Shu orqali harbiy xizmatchi o‘z ichki resurslarini anglab, stressli vaziyatlarda ham samarali harakat qila oladi. Psixologning ta’kidlashicha, bu jarayon — xavfsizlik va samaradorlikni ta’minlovchi “ichki kompas” sifatida ishlaydi. Harbiy jamoada psixodiagnostika natijalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar va treninglar harbiy xizmatchilarning o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish va jamoaviy muhitga moslashish ko‘nikmalarini oshiradi. Shu tarzda psixologlar nafaqat ruhiy muvozanatni mustahkamlashadi, balki harbiy intizom va Vatanga sadoqatni ham mustahkamlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, psixodiagnostika — bu harbiy xizmatda ruhiy kuch, ishonch va barqarorlikni shakllantirishning eng kreativ va samarali vositasidir. Har bir harbiy xizmatchining ichki dunyosini tushunish orqali, psixologlar uni yanada kuchliroq, bardoshliroq va ishonchliroq qiladi.

Umidillo MIRZAKARIMOV,
Andijon shahridagi 7553-harbiy qism psixologi, katta leytenant.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2022 йил 1 апрель куни вафот этган марҳум **TAIROVA ODINAXON XUDAYBERDIYEVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2021 йил 14 октябрь куни вафот этган марҳум **MAXMUDOV YULDASHBAY URMANOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 39-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.М.Маматов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Анҳор МФЙ, Туктагул кўчаси, 33-уйда яшаб, 2025 йил 9 июнь куни вафот этган марҳум **JOLDOSHEV IRISBEK NAZARBEKOVICH,**

Хонобод шаҳри, Истиқлол МФЙ, Х.Юлдаш кўчаси, 3-уй, 4-хонадонда яшаб, 2025 йил 26 май куни вафот этган марҳум **GAYSIN YADGAR SADRITDINOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 13 апрель куни вафот этган марҳум **REDJAPOV ALIDJAN,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 23 ноябрь куни вафот этган марҳум **AKYULOV XABIBULLA NARMATOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2008 йил 3 декабрь куни вафот этган марҳум **БУРХАНОВ ЗАЙНАБУДИН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 6 ноябрь куни вафот этган марҳум **ISOMITDINOV TURSUNBOY TUG‘ONBOYEVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1998 йил 4 декабрь куни вафот этган марҳум **ДАДАЖОНОВ АДИЛЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 11 март куни вафот этган марҳум **ТОЛИПОВ ГУЛОМЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 3 июнь куни вафот этган марҳум **MUMINOV DILMUROT MADAMINOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2004 йил 10 октябрь куни вафот этган марҳум **УСМОНОВА МИНОЖОТХОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2010 йил 24 июнь куни вафот этган марҳум **URAZOV AKIM,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2005 йил 2 июнь куни вафот этган марҳум **ИМОМНАЗАРОВ НУМАН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Янги обод МФЙ, Машъал кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 1 март куни вафот этган марҳум **ОЛАМОВ КАМОЛИДДИН КОМИЛОВИЧ,**

Избоскан тумани, Истиқлол МФЙ, Озодлик кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 21 февраль куни вафот этган марҳум **ТУЛАКОВ МУТАЛЛИБЖОН САРИМСАКОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 1 декабрь куни вафот этган марҳум **СОДИКОВ ГАНИЖОН ЖАБАРАЛИЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, А.Темур кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Р.К.Каримова нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Чорсу МФЙдаги уйда яшаб, 2025 йил 28 январь куни вафот этган марҳум **ОТАХОНОВ МАМАДРАСУЛ ГУЛОМКОДИРОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 11.11.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 11.11.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li